

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA MOLIYAVIY MUSTAQILLIK BERISH  
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Oliy ta'lismizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lismizda muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag'larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta'lismizda muassasalari o'rtaida raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida:

1. Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lismizda muassasalari ro'yxati [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lismizda muassasalariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi masalalar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilsin:

ta'lismizda xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash;

talabalarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish;

ta'lismizda jarayoniga zamонави pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislar shartnomasi asosida jalb qilish;

o'quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to'lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib belgilashga oid qarorlar qabul qilish;

professor-o'qituvchilar shtat birliklarini kiritish me'yorlarini ishlab chiqish;

o'z mablag'larini hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish;

xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni mualliflik huquqi bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan to'g'ridan to'g'ri xarid qilish;

bo'sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash;

avtotransport vositalarining yo'l bosish yillik limiti va ularga xizmat ko'rsatish talablarini belgilashi.

3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lismizda muassasalari quyidagilarni nazarda tutuvchi moliyalashtirish tartibiga o'tkaziladi:

barcha ta'lismizda yo'naliishlari va bosqichlari bo'yicha bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdori hisoblab chiqiladi;

davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun Davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib asosida bir talabaga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib belgilanadi;

davlat granti asosida ta'lismizda olayotgan talabalar uchun budget mablag'larini bo'y sunuvchi bo'yicha tegishli vazirlik va idora hamda oliy ta'lismizda muassasasi o'rtaida imzolanadigan bitim asosida ajratiladi (bundan maqsadli mablag'lar, shu jumladan stipendiya to'lovlar, yetim bolalar va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasi uchun qonunchilikda belgilangan mablag'lar, oliy ta'lismizdan keyingi ta'lismizda xarajatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari asosida ajratiladigan boshqa mablag'lar mustasno);

davlat granti asosida ta'lismizda olayotgan talabalar uchun ajratilgan budget mablag'larini (bundan maqsadli mablag'lar mustasno) oliy ta'lismizda muassasasining budgetdan tashqari mablag'larini bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkaziladi va hisobot davri oxirida mablag'larning qoldig'i oliy ta'lismizda muassasasi ixtiyorida qoldiriladi;

davlat buyurtmasi sifatida ajratilgan mablag'lar hamda to'lov-kontrakt mablag'larini bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasi tegishliligi bo'yicha yuqori turuvchi vazirlik va idorada ro'yxatdan o'tkaziladi hamda ularidan foydalanish Budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi uchun

belgilangan tartibga o‘xhash tartibda amalga oshiriladi. Bunda, moliya yili davomida daromadlar va xarajatlar smetasiga kiritiladigan o‘zgartirishlar Moliya vazirligi bilan kelishilmaydi;

to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymati bir talaba uchun to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib, biroq oliv ta’lim muassasasini o‘zini o‘zi to‘liq moliyaviy ta’minalash, istiqbolda rivojlantirish hamda ta’lim xizmatlari bozoridagi o‘zaro raqobat asosida belgilanadi.

4. Belgilansinki, moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliv ta’lim muassasalarida:

asosiy vositalarni ijara berishdan tushgan mablag‘ning 1 foizi — Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy bo‘linmalari huzuridagi davlat mulki ijara markazlariga, qolgan qismi — elektron savdo maydonchasi operatoriga to‘langan to‘lov chegirilgandan keyin mazkur oliv ta’lim muassasasining budjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi;

asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni (bundan er, bino, inshootlar, jumladan operativ boshqaruvga berilgan bino va inshootlar hamda o‘quv-ilmiy laboratoriya jihozlari mustasno) sotishdan tushgan mablag‘lar to‘lig‘icha o‘z ixtiyorida qoldiriladi;

moliyaviy nazorat tadbirlarini xolisona va mustaqil o‘tkazadigan ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati tashkil etiladi;

mablag‘larning sarflanishi yuzasidan yuqori turuvchi vazirlikka (idoraga) har chorakda belgilangan tartibda hisobot beriladi;

Davlat budgetidan ajratilgan mablag‘lar, xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, amalga oshirilayotgan loyihibar hamda tasarrufidagi mablag‘lar, moddiy boyliklar va mulkdan foydalanish to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlar o‘z rasmiy veb-saytlariga muntazam joylashtirib boriladi;

mablag‘lardan oqilona va samarali foydalanish, jumladan xodimlar mehnatiga haq to‘lash va stipendiya to‘lovlarini o‘z vaqtida hamda to‘liq amalga oshirish uchun javobgarlik tegishli oliv ta’lim muassasasi rahbari zimmasiga yuklanadi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagisi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-son [qaroriga](#) asosan o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tayotgan oliv ta’lim muassasalariga berilgan vakolat va huquqlar ushbu qarorga muvofiq moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliv ta’lim muassasalariga tatbiq etilsin. Bunda:

moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliv ta’lim muassasalari yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan budget mablag‘larini oluvchi davlat tashkiloti hisoblanadi;

talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymati oliv ta’lim muassasasi tomonidan ta’lim xizmatlari bozoridagi talab va taklifdan kelib chiqib, biroq tegishli yo‘nalish bo‘yicha davlat oliv ta’lim muassasalarida belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt qiymatidan uch baravardan ortiq bo‘lmagan miqdorda belgilanadi;

bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklari kesimida qabul shartlarida to‘lov-kontrakt qiymati tabaqlashtirilgan miqdorlarda belgilanishi mumkin.

6. Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliv ta’lim muassasalarida quyidagilar kuzatuv kengashlarining asosiy vakolatlari etib belgilansin:

oliv ta’lim muassasasining uzoq va o‘rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash, xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar reytingining yuqori o‘rinlaridan joy olish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilib borish;

oliv ta’lim muassasasining o‘rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;

ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar hamda ixtisosliklar bo‘yicha to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul parametrlarini belgilash to‘g‘risida qaror qabul qilish;

oliv ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan vazifalar ijrosi, maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish holati bo‘yicha rektor va prorektorlar faoliyatini o‘rganish hamda axborotini eshitish;

oliv ta’lim muassasasining ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga moliyaviy nazorat o‘tkazish uchun qo‘srimcha topshiriq berish hamda nazorat tadbirlarining natijasi yuzasidan hisobot olish;

oliy ta'lim muassasasini rivojlantirish va uning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etish, shu jumladan nodavlat notijorat tashkiloti ko'rinishida maqsadli kapital jamg'armasini shakllantirish;

ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalişlaridan kelib chiqib, oliv ta'lim muassasalarining innovatsion va boshqa jamg'armalar mablag'larini sarflash tartibi va yo'nalişlarini mustaqil belgilash;

oliy ta'lim muassasasi rahbari va xodimlari hamda professor-o'qituvchilari faoliyatiga baho berish, ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlash;

oliy ta'lim muassasasi hamda ular huzuridagi ta'lim va ilmiy muassasalarning rahbari va xodimlari, professor-o'qituvchilari, shuningdek, xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to'lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag'batlantirish tartibini mustaqil belgilash;

oliy ta'lim muassasasining budgetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibini, shu jumladan xarajatlarning taqsimlanish ulushini mustaqil belgilash.

7. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshkulov) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Shermatov) bilan birgalikda uch oy muddatda davlat oliv ta'lim muassasalari talabalari uchun elektron shartnomalar tuzish, to'lov-kontrakt asosida o'qitish xarajatlarini onlayn to'lash va mablag'lar hisobini yuritish bo'yicha yagona axborot tizimini (keyingi o'rnlarda — Axborot tizimi) ishlab chiqsin hamda Moliya vazirligi va Markaziy bankning axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta'minlasin.

Belgilansinki, Axborot tizimiga ulanish idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, barcha davlat oliv ta'lim muassasalari uchun majburiy hisoblanadi.

Axborot tizimini amaliyotga joriy etish, qo'llab-quvvatlash va oliv ta'lim muassasalariga shartnoma asosida xizmat ko'rsatish vazifasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish markaziga yuklatilsin.

8. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bo'ysunuvida oliv ta'lim muassasasi mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

xalqaro moliya tashkilotlarini jalb qilgan holda 2022-yil yakuniga qadar davlat oliv ta'lim muassasalarida bozor mexanizmlariga asoslangan biznes jarayonlarini joriy etish, ularni xususiyashtirish, ular faoliyatiga korporativ boshqaruvni joriy etish hamda to'liq moliyaviy mustaqillik berish orqali ta'lim sifatini oshirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritisin;

oliy ta'lim muassasasi hamda bitiruvchilar o'rtasida uzviy aloqa o'rnatish, ularning kelgusi professional faoliyati, erishgan yutuqlari va tajribalarini o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borish, ular bilan talabalar o'rtasida aloqa o'rnatish, mahorat darslari tashkil etish yuzasidan zarur choralar ko'rsin. Bunda, bitiruvchilarning kelgusida erishgan yutuqlari oliv ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi;

oliy ta'lim muassasalari rahbarlarining fuqarolarga ta'lim xizmatlari ko'rsatish qamrovi va sifatini oshirish, ta'lim jarayonini ilg'or oliv ta'lim standartlariga muvofiqlashdirish borasida amalga oshirilgan ishlar hamda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bo'yicha belgilangan ko'rsatkichlarning bajarilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikka muntazam ravishda hisobot berib borishini ta'minlasin.

9. Tibbiyot oliv ta'lim muassasalariga ularning klinikalarida moddiy-texnik bazani mustahkamlash, shuningdek, kapital va joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun o'zlarining budgetdan tashqari mablag'larini hisobidan zarur mablag'lar sarflashga ruxsat berilsin.

10. Quyidagilar ma'lumot uchun qabul qilinsin:

davlat oliv ta'lim muassasalari Soliq **kodeksiga** muvofiq soliq to'lashdan ozod etilganligi;

moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliv ta'lim muassasalariga qonunchilikda oliv ta'lim muassasalari uchun nazarda tutilgan soliq imtiyozlari tatbiq etilishi;

moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliv ta'lim muassasalariga ijtimoiy soliqning 12 foiz miqdordagi stavkasi qo'llanilishi.

Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-sentabrdagi "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6318-son Farmoni **3-bandida** nazarda tutilgan bojxona bojidan ozod qilish bo'yicha imtiyoz o'quv hamda ilmiy

laboratoriya jihozlari, maxsus asbob-uskunalar, o‘quv, ilmiy-metodik adabiyotlar, o‘qitishning texnik vositalari, multimedia mahsulotlarini olib kiruvchi barcha yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda bojxona bojidan ozod qilinadigan tovarlar ro‘yxatini shakllantirsin hamda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

11. Moliya vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda:

ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari uchun davlat oliy ta’lim muassasalari xarajatlarini “UzASBO” dasturiy majmuasi orqali onlayn monitoring qilish imkoniyatini yaratsin. Bunda, xarajatlarni amalga oshirishda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xato va kamchiliklar bo‘yicha “tahlika-tahlil” tizimini yo‘lga qo‘ysin;

Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasiga to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobidan ajratmalarining Moliya vazirligi axborot tizimi orqali avtomatik tarzda o‘tkazilishini ta’minlasin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga [2-ilovaga](#) muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

13. Milliy teleradiokompaniya Milliy axborot agentligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda bir hafta muddatda ushbu qaror maqsadi va vazifalarini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritishga doir maxsus media-reja ishlab chiqsin hamda uning ijrosini ta’minlasin.

14. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi uch oy muddatda quyidagilarni Vazirlar Mahkamasiga kiritinsin:

Moliya vazirligi bilan birgalikda bir talaba uchun to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat miqdori asosida moliyalashtirish tartibini nazarda tutuvchi qaror loyihasini;

qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida takliflarni.

15. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri A.X. Toshkulov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijob uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga 2022-yil 1-iyul va 2023-yil 1-yanvarga qadar axborot berilsin.

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,  
2021-yil 24-dekabr,  
PQ-61-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son [qaroriga](#)  
1-ILOVA

### **Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalari**

RO‘YXATI

*Oldingi tahrirga qarang.*

1. Samarqand davlat chet tillar instituti
2. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
3. Toshkent davlat yuridik universiteti
4. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
5. Toshkent moliya instituti
6. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
7. Toshkent farmatsevtika instituti

8. Toshkent davlat transport universiteti
9. Urganch davlat universiteti
10. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
11. Andijon mashinasozlik instituti
12. Toshkent kimyo-texnologiya instituti
13. Samarqand davlat universiteti
14. O‘zbekiston Milliy universiteti
15. Toshkent davlat texnika universiteti
16. Toshkent tibbiyot akademiyasi
17. Qo‘qalpoq davlat universiteti
18. Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti
19. Buxoro davlat universiteti
20. Buxoro davlat tibbiyot instituti
21. Samarqand davlat tibbiyot universiteti
22. Qarshi davlat universiteti
23. Termiz davlat universiteti
24. Toshkent davlat agrar universiteti
25. Guliston davlat universiteti
26. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
27. Namangan davlat universiteti
28. Farg‘ona davlat universiteti
29. Geologiya fanlari universiteti
30. Andijon davlat universiteti
31. Andijon davlat tibbiyot instituti
32. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
33. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
34. Toshkent davlat stomatologiya instituti
35. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
36. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Izoh:

2023-yil 1-yanvardan boshlab Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga Respublika oliy ta’lim kengashi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda mazkur ro‘yxatga qo‘shimcha davlat oliy ta’lim muassasalarini kiritish huquqi beriladi.

(1-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022-y., 07/22/290/0563-son — 36-band 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son qaroriga  
2-ILOVA

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-avgustdagи “Jismoniy tarbiya va sport obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash ishlarini moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5787-son Farmoni 6-bandining **beshinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5987-son Farmoni 16-bandining **yettinchi xatboshisi** “barcha ajratmalardan” so‘zlaridan keyin “2025-yilga qadar” so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-noyabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi

PQ-3389-son qarori 4-bandining **uchinchi xatboshisidan** “hamda oliy ta’lim muassasalarining oshirilgan to‘lov-kontrakt tushumlari (5 foizgacha miqdorda)” so‘zлari chiqarib tashlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) **ro‘yxati** quyidagi mazmundagi 43-band bilan to‘ldirilsin:

“43. Oliy ta’lim muassasalari tomonidan xorijiy davlatlardan o‘quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalarini (mualiflik huquqi bo‘lgan ishlab chiqaruvchilardan), sarflanadigan laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar) xarid qilish”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi “Davlat tibbiyat muassasalari va sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4007-son qarori 5-bandining “a” kichik bandi **uchinchi xatboshisidan** “oliy tibbiyat ta’lim muassasalari hisobvaraqlarida jamlanadigan pullik o‘qish kontraktlari bo‘yicha tushumlar, shuningdek,” so‘zлari chiqarib tashlansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-noyabrdagi “Toshkent shahrida Adju universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4041-son **qarorida**:

a) **4, 6, 7** va **8-bandlardi** “2019/2020” raqamlari “2020/2021” raqamlari bilan almashtirilsin;

b) 5-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “2019/2020 va 2020/2021” so‘zлari “2020/2021 va 2021/2022” so‘zлari bilan almashtirilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Oliy ta’lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4319-son qarori 3-bandining **uchinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-son **qarorida**:

a) **7-bandi** quyidagi tahrirdagi o‘n beshinchи xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Mazkur bandning “a”, “b” va “v” kichik bandlari moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta’lim muassasalariga tatbiq etilmaydi”;

b) 12-bandning **birinchi xatboshisidagi** “2022” raqami “2025” raqami bilan almashtirilsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzlusiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4666-son qarori 6-bandining **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Moliya vazirligi 2022/2023 o‘quv yilida sog‘liqni saqlash sohasi uchun 50 nafar menejer mutaxassislarni magistrlik yo‘nalishi bo‘yicha davlat granti asosida tayyorlash bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash choralarini ko‘rsin”.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5020-son qarori 15-bandining **ikkinchi** va **uchinchi xatboshilari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2021/2022 o‘quv yilida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan 100 nafardan xotin-qizlar uchun har yili mahalliy budgetning qo‘srimcha manbalari hamda moliyaviy barqaror davlat oliy ta’lim muassasalari tomonidan ularning Kengashi qaroriga asosan 50 nafargacha xotin-qizlar uchun davlat oliy ta’lim muassasalarining budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan;

2022/2023 o‘quv yilidan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan 150 nafardan xotin-qizlar uchun har yili mahalliy budgetning qo‘srimcha manbalari hisobidan qoplab beriladi”.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktabrdagi “Xirurgiya xizmatini transformatsiya qilish, hududlarda jarrohlik amaliyotlari sifatini oshirish va ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5254-son qarorining **11-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. Sog‘liqni saqlash vazirligi 2022/2023 o‘quv yilida sog‘liqni saqlash sohasi uchun 50 nafar menejer mutaxassislarini magistrlik yo‘nalishida (Master of Healthcare Administration) davlat granti asosida Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster va boshqa nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida tayyorlash bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda shartnomalar tuzilishini va bu bilan bog‘liq xarajatlarning mazkur maqsadlar uchun Davlat budgetidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilishini ta’minlasin”.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-yanvardagi “Toshkent shahrida “Sankt-Peterburg davlat universiteti” Federal davlat budgeti oliy ta’lim muassasasi filiali faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4942-son qarori 3-bandining **oltinchi xatboshisidagi** va 9-bandining “**b**” **kichik bandidagi** “2021/2022” raqamlari “2022/2023” raqamlari bilan almashtirilsin.

13. Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 102-son **qarorida**:

a) **3-band** quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“2022-yil 1-yanvardan boshlab, oliy ta’lim muassasalarining ko‘chmas mulkini ijaraga berishdan tushgan mablag‘ning 1 foizi O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy bo‘linmalari huzuridagi davlat mulki ijara markazlariga, qolgan qismi esa elektron savdo maydonchasi operatoriga to‘langan to‘lov chegirilgandan keyin — mazkur oliy ta’lim muassasasining rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi”;

**oltinchi** — **o‘ninchи xatboshilar** tegishinchha yettinchi — o‘n birinchi xatboshilar deb hisoblansin;

b) Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risidagi nizomning **23-bandi** quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“oliy ta’lim muassasalarining ko‘chmas mulkini ijaraga berishdan tushgan mablag‘ning 1 foizi O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy bo‘linmalari huzuridagi davlat mulki ijara markazlariga, qolgan qismi esa elektron savdo maydonchasi operatoriga to‘langan to‘lov chegirilgandan keyin — mazkur oliy ta’lim muassasasining rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi”;

**oltinchi** — **o‘n to‘rtinchi xatboshilar** tegishlichcha yettinchi — o‘n beshinchi xatboshilar deb hisoblansin.

14. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi “Adliya organlari va muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 124-son qarorining **5-bandidan** “, shu jumladan Toshkent davlat yuridik universitetida o‘qitishning oshirilgan to‘lov-kontrakt summasini to‘lashdan tushadigan mablag‘lar” so‘zları chiqarib tashlansin.

15. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 130-son qarorining **5-bandidan** “oliy ta’lim muassasalarining oshirilgan to‘lov-kontrakt tushumlari (5 foizgacha miqdorda),” so‘zları chiqarib tashlansin.

16. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-fevraldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi **nizomda**:

a) 4-bandning **ikkinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“oliy ta’lim muassasalarining to‘lov-kontrakt (shu jumladan, tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt) shaklida o‘qitishdan tushadigan mablag‘larining mazkur mablag‘lar bo‘yicha moliya yili oxiriga qoldiq (tijorat banklarining depozitlariga joylashtirilgan mablag‘lar ham inobatga olingan holda) qismining 4 foizi miqdordagi ajratmalar”;

b) **5-banddagи** “1-apreldidan” so‘zları “10-yanvaridan” so‘zları bilan almashtirilsin.

(Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021-y., 07/21/61/1195-son; 02.04.2022-y., 07/22/188/0259-son, 22.06.2022-y., 07/22/290/0563-son)